

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

XITOY TILIDA INSHO YOZISH ALGORITMI

Artikova Ziyoda Zayniddinovna,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edires.2024.03.1.006>

Annotatsiya: Xitoy tilida insho yozishda o‘quvchilarning asosan til bo‘yicha egallagan lug‘at boyligining ko‘lami, grammatik qurilmalarni ishlatish bilimi, nutqiy vaziyatda so‘z va iboralarni to‘g‘ri ishlatish ko‘nikmasi muhim hisoblanadi. Ushbu bilimlarni va insho yozish qoidasini egallash birgalikda yaxshi metodik samarani beradi.

Kalit so‘zlar: insho, sarlavha, abzas, usul, vosita, mazmun, qoida.

АЛГОРИТМ НАПИСАНИЯ ЭССЕ НА КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Артикова Зиёда Зайнитдиновна,
Преподаватель Ташкентского государственного университета востоковедения

Аннотация: При написании эссе на китайском языке читателям важно иметь объемный словарный запас по языку, знание использования грамматических приемов, умение правильно употреблять слова и словосочетания в речевой ситуации. Совместное овладение этими знаниями и правилами написания эссе дает хороший методический эффект.

Ключевые слова: эссе, заголовок, абзац, метод, инструмент, содержание, правило.

ALGORITHM FOR WRITING AN ESSAY IN CHINESE

Artikova Ziyoda Zayniddinovna,
Lecturer at Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract: When writing an essay in Chinese, it is important for readers to have a large vocabulary of the language, knowledge of the use of grammatical techniques, and the ability to correctly use words and phrases in a speech situation. Joint mastery of this knowledge and the rules of essay writing gives a good methodological effect.

Key words: essay, title, paragraph, method, tool, content, rule.

Kirish. Xitoy tili HSK5 imtihonining yozuv bo‘limida o‘quvchidan kamida 80 ta ieroglifdan iborat ikkita insho matni yozish talab etiladi. Bunda o‘quvchining so‘z boyligi, lug‘at xazinasiga, matn va uning grammatik xususiyatlari, tarkibiy qismlari orasidagi bog‘liqlikka, grammatik bog‘lamalarni o‘rnida ishlatish, uslubiy ravonlik talab qilinadi. Shuning uchun ham insho yozishga tayyorlanish jarayonida o‘quvchiga yozma va og‘zaki nutqda so‘z va iboralarni to‘g‘ri tanlash, nutqiy vaziyatga qarab ularni o‘rinli ishlatish ko‘nikmalarini singdiriladi. Bunda o‘quvchining xitoy tili darajasidan tashqari, shu tilda muloqot ko‘lami, ijodiy tafakkuri, fikr ifodalash ehtiyoji bilan til vositalari orasidagi mutanosiblikka ahamiyat qilinadi. Xitoy tili darslarida matn ustida ishslash topshiriqlarini berishdan maqsad ham, topshiriqlarni bajarish jarayonida til imkoniyatlaridan foydalanishning turli usul va vositalar bilan tanishtirish, sintaktik qoliqlar haqida bilim berishdan iborat[4]. Xitoy tilida gapni to‘g‘ri tuzish uchun, avvalo, so‘z birikmalarini gapdagisi o‘rni, ular orasidagi munosabat, strukturasi aniqlab olinadi. Masalan, fe’l-ob’ektli, atributiv, markaziy bo‘lak va to‘liqlovchili birikma...[2] Bundan tashqari, yozish ketma-ketligi, abzaslar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik, sarlavha qo‘yishga e’tibor beriladi.

Birinchisi, insho mavzusini nomlash.

Bir inshoni yozganda qanday qilib o‘quvchi e’tiborini tortish mumkin, albatta, uning nomlanishi nihoyatda muhim hisoblanadi. Yaxshi qo‘ylgan mavzu nomi o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi. Quyida inshoga nom qo‘yishda ahamiyat qilish kerak bo‘lgan jihatlarni ko‘rsatib o‘tamiz[6].

1. Inshoning nomi va mazmuni bir biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak. O‘quvchi insho mavzusini ko‘rishi bilanoq, uning asosiy mazmuni haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

2. Insho mavzusi uzun bo‘lmasligi kerak, aniq va tushunarli ifodalanishi lozim. Misol uchun: “最难忘的一件事儿” *Unutilmas voqeа* yoki “北京见闻” *Pekin haqida eshitganlarim* kabi.

3. Insho mavzusi iloji boricha o‘quvchini o‘ziga tortadigan, yangilikka boy bo‘lgan so‘zlar bilan yoritilishi kerak. Misol uchun “美丽的颐和园” *Go‘zal Ixeyuan bog‘i* yoki “我最爱的游戏” *Men yoqtirgan o‘yin* kabi.

4. O‘xshatish, iboralar, frazeologizmlar, maqollar yoki savol shaklida ham bersa bo‘ladi. Misol uchun: “画蛇添足” yoki “我为什么来中国” *Men nima uchun Xitoyga keldim?* kabi.

Ikkinchisi, inshoning kirish qismi.

Inshoni kirish qismini yozish bo‘yicha turli usullar bor, yaxshi boshlangan kirish so‘zi, tabiiyki, inshoning asosiy mavzusini ko‘rsatib beradi, aniq va tushunarli holda asosiy mazmunga o‘tish imkonini beradi, hamda odamning e’tiborini jalb qiladi[3]. Insho yozishni boshlash usullarinidan quyidagilarni ko‘rsatib o‘tamiz:

1. Voqeа sodir bo‘lagan joy, vaqtни aytib o‘tish orqali boshlash.
2. Voqeа sodir bo‘lgan muhitni tasvirlash orqali boshlash.
3. Biron bir ishga baho berish, tanqid qilish orqali boshlash.
4. Voqeа bilan bog‘liq bo‘lgan ish yoki odamni tanishtirish orqali boshlash.
5. Taniqli odamning fikriga iqtibos berish orqali boshlash.
6. Matndagi asosiy masalani aytib o‘tish orqali boshlash.

Uchinchisi, matnni qismlarga (abzasga) bo‘lish.

Bitta matn odatda bir nechta abzasdan iborat bo‘ladi. Bir abzas nisbatan mustaqil to‘liq ma’noga ega bo‘lgan mazmuni ifodalaydi. Matnni abzaslarga bo‘lishdan maqsad, o‘quvchiga matnni yanada tushunarli, osonroq qabul qilishiga yordam berish, uning ma’nosini yanada aniq tushunishga imkon yaratishdir.

Odatda, bir voqeani bayon etish vaqt o‘tishiga qarab yoki joylarni o‘zgarishiga qarab rejalashtiriladi. Ba’zida voqeanning sababi, sodir bo‘lishi, kechish jarayoni, natijasiga qarab tuziladi[4].

Xitoy tilida tuziladigan inshoni yozishda abzasni boshlanishini ko‘rsatish uchun, yangi qatorni chap tomonidan ikkita katak tashlab yoziladi. Masalan, qo‘yidagi matn to‘rtta abzasga bo‘lingan.

今天，天气很好，阳光明媚，爸爸带我和妹到南湖公园去玩儿。

我们坐着公共汽车来到湖南大桥旁边，那里种着很多花草树木，绿叶衬托着一朵朵各色各样的花朵，非常漂亮。我们下了车，来到桥上，大桥横跨在水面上，许多汽车在大桥上快速地行驶着。

来到公园，公园里风景如画，宽阔的湖面上碧波荡漾，漂亮的小石桥直通湖中的小亭子，小亭子里有人在下棋。

爸爸给我们租了一艘电动车。我们在船上，爸爸开着船，我小心地把手伸进水里，水很清凉，好像全身都变得清爽了。妹妹高兴地拍着手，还唱起了歌。我跟爸爸说让我开一会儿，爸爸把方向舵交给我。我开着船，小船就像一匹小马似的快速地在湖面上行驶，激起一串串白色地水花。突然，前面有艘船朝我们这边开过来，眼看就要撞到了，我手忙脚乱地不知道该怎么办，爸爸急忙把船前进档换成了后退档，终于成功地避开。我们又在湖面上玩了一会儿，租船的时间就到了。

HSK4 imtihonidagi yozuv bo‘limida berilgan mashqlardan farqli ravishda HSK5 imtihoni yozuv bo‘limidagi mashqlarning qiyinchilik darajasi birmuncha yuqoriroq. Rasmga qarab, so‘zlarni to‘g‘ri joylab gap tuzishdan keyingi bosqichga, 5 ta ieroglifni ishlatgan holda insho yozish bosqichiga o‘tadi. Va bu insho kamida 80 ta ieroglifdan iborat bo‘lishi, mazmuni mantiqan bog‘langan, kirish, asosiy qism, xulosa ko‘rinishida, asosiysi belgilangan vaqtda yozib tugatilishi talab etiladi. Bu beshta so‘z alohida ma’noga ega, ular bilan mustaqil gap

tuzish qiyin emas, ammo ularni hammasini ishlatgan holda insho yozish o‘quvchiga biroz qiyinroq tuyiladi. Bu yerda ahamiyat qilish kerak bo‘lgan bir nechta qoida bor: so‘zlarni mazmun jihatdan bir birga bog‘lash, savol berib kerakli ma’lumotni topish va bir voqeani kengaytirib yoritish[6]. Masalan shu beshta so‘z olsak: “联欢会, 新年, 热闹, 祝贺, 唱歌” - *yangi yil bazmi, yangi yil, gayjum, tabriklamoq, kuylamoq.* Birinchi navbatda, bu so‘zlarni ma’no jihatdan bir biriga bog‘laydigan so‘z bilan birlashtiriladi: “新年到了——举办联欢会——唱歌——气氛很热闹——互相祝贺” – *yangi yil keldi - bazm kechasi tashkil qilindi - qo‘sishiq kuylandi – bayramona kayfiyat - bir birini tabriklamoq.* Ikkinchidan, bu so‘z birikmalariga savol tuzib, savollar ichidan kerakli ma’lumotlar topiladi:

“新年到了” - *yangi yil keldi:* Nechinchi yil kirib keldi? Avvallari siz yangi yilni qanday nishonlagansiz? Bu yil qanday nishonladingiz?

“举办联欢会” - *bazm kechasi tashkil qilindi:* Qaerda? Kim bilan? Qanday tadbirlar o‘tkazildi?

“唱歌” – *qo‘sishiq kuylandi.* Kim qo‘sishiq kuyladi? Qanday qo‘sishiq kuyladi? Qo‘sishiq yoqimli ekanmi?

“气氛很热闹” - *bayramona kayfiyat:* Qo‘shiqdan tashqari yana qanday dasturlar tuzildi? Nima tadbirlar o‘tkazildi?

“互相祝贺” - *bir birini tabriklamoq:* Nima munosabat bilan tabriklamoq? Kayfiyat qanday?

Uchinchidan, ushbu savollarga javob bergandan so‘ng, ichidan kerakli ma’lumotni olib, bir jarayonni sodir bo‘lish holatini tasavvur qilish kerak va harakatlar ketma ketligini belgilab chiqqan holda kichik hikoya yoki insho yoziladi[6]. Bundan texnika o‘quvchilarga boshida murakkab tuyulgan vazifani oson bajarish imkonini beradi. To‘liq ko‘rinish quyidagicha:

2024年的新年就要到了，今天，学校举办了庆祝新年的联欢会。同学们表演了很多节目，有的唱歌，有的跳舞，还有的演小品，非常精彩，气氛热闹极了。表演结束后，同学们还一起聊天，互相祝贺新年快乐。这真是愉快的一天啊！*2024 yil kirib kelmoqda. Bu yil universitet yangi yilni nishonlash bazmini tashkil qildi. Talabalar ko‘pgina chiqishlar qildilar, kuylaganlar ham bo‘ldi, raqsga tushganlar ham, yana kichik sahna ko‘rinishi ham bo‘ldi, juda rang-barang chiqdi, hammaning kayfiyati bayramona. Dastur tugagandan keyin ham, o‘quvchilar suhbatlashib o‘tirdilar, bir birlarini yangi yil bilan tabrikladilar. Bu kun juda ham quvnoq o‘tdi!*

O‘quvchilarda bundan matnlar, kichik hikoyalar tuzishni mashq qilish orqali nafaqat HSK5 imtihoniga tayyorgarlik ko‘radilar, balki insho yozish texnikasini yanada mukammal egallaydilar, uni rivojlantiradilar.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. 刘月华, 潘文娱。实用现代汉语语法。 Zamonavij xitoy tili garmmatikasi. 北京2004. 9096

2. Ван Ляо-И. Основы китайской грамматики. Издательство иностранной литературы. Москва. 1954年 806.

3. Азим Хожиев “Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати” www.ziyouz.com кутубхонаси.

4. Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. Тошкент. 2007, 166

5. 郑丽杰。HSK5极征服。HSK5 билимини эгаллаш. 北京2019年.

6. Артикова З.З. Хитой тили (HSK5 грамматикаси ва ёзув машқлари). Тошкент 2023й.